


## Xizmatlar sohasining rivojlanishi – iqtisodiyotning "uchinchi sektori"ning asosiy yo'nalishlari

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalar, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.


Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish. Shuningdek, sataroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyohlik agentliklari va boshqalar kiradi.



<sup>\*)</sup> 2019 yil yanvar-iyun oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar

2019-yil 1-avgust holatiga respublikada jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 376,8 mingtani tashkil etdi, ulardan 249,1 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 66,1 % ga yetdi. Ularning o'sishi 21,0 % ga ko'paydi.

**2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga, ushbu sohada kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining aniq miqdoriy ustunligi ushbu sohaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 188,0 mingtasi yoki 75,5 % kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasi bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 59,8 % ni tashkil etdi. Ularning soni o'tgan yilga nisbatan 40,2 mingtaga ko'payib, o'sish sur'ati 27,2% ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan  
kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tarkibi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil 1-avgust holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (37,1 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.


**2019-yil 1-avgust holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-avgust holatiga, xizmatlar sohasida 205,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari - 33,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,1 %, tashish va saqlash - 6,2 %, axborot va aloqa - 3,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,1 %, boshqa turlar - 45,2 % ni tashkil etgan.

2019-yil 1-avgust holatiga xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'rilganda 43,3 mingtaga ko'paydi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar sonini  
2018-yilning mos davriga nisbatan ko'payishi  
(2019-yil 1-avgust holatiga, ming birlikda)**




Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning soni 40,2 ming birlikga ko'paydi.


2019 yil yanvar-iyul oylarida xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (38,5 mingtaga) o'tgan yilga nisbatan 18,6 mingtaga ko'paydi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (36,2 mingtaga) 20,4 mingtaga ko'paydi.

**2019 yil yanvar-iyul oylarida xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, ming birlik**




Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 100 114,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 19 633,8 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 12,8 % ni tashkil etdi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 33,3 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %**




Shuningdek, eng katta ulush Toshkent (7,2 %), Samarqand (6,5 %), Farg'ona (5,9 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlarida qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (1,4 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,0 %) qayd etildi.

Joriy davrda eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (122,9 %), Jizzax (118,8 %), Xorazm (114,6 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi (116,6 %) va Toshkent shahrida (116,1 %) qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Nisbatan past o'sish sur'atlari Toshkent (108,3 %), Samarqand (110,0 %) va Surxondaryo (110,3 %) viloyatlarida kuzatildi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>100 114,4</b>	<b>112,8</b>	<b>2 998,4</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 022,6	116,6	1 611,3
viloyatlar:			
Andijon	5 195,9	111,9	1 688,2
Buxoro	4 248,4	111,8	2 235,2
Jizzax	2 221,4	118,8	1 634,7
Qashqadaryo	4 653,6	113,1	1 442,2
Navoiy	2 569,6	112,3	2 614,0
Namangan	3 972,5	112,3	1 436,9
Samarqand	6 471,3	110,0	1 695,8
Surxondaryo	3 791,0	110,3	1 468,1
Sirdaryo	1 390,5	122,9	1 668,5
Toshkent	7 194,1	108,3	2 474,1
Farg'ona	5 950,8	111,2	1 609,5
Xorazm	2 997,9	114,6	1 628,3
Toshkent shahri	33 343,7	116,1	13 209,6

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 543,1 ming so'mga oshdi va 2 998,4 ming so'mga teng bo'ldi, o'sishi 10,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Bu erda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 13 209,6 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.

Namangan (1 436,9 ming so'm), Qashqadaryo (1 442,2 ming so'm), Surxondaryo (1 468,1 ming so'm) viloyatlarida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi boshqa hududlar bilan taqqoslaganda nisbatan past.

### **2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm**



<b>Namangan viloyati - 1436,9 ming so'm</b>
<b>Qashqadaryo viloyati - 1442,2 ming so'm</b>
<b>Surxondaryo viloyati - 1468,1 ming so'm</b>
<b>Farg'ona viloyati - 1609,5 ming so'm</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi - 1611,3 ming so'm</b>
<b>Xorazm viloyati - 1628,3 ming so'm</b>
<b>Jizzax viloyati - 1634,7 ming so'm</b>




<b>Toshkent sh. - 13209,6 ming so'm</b>
<b>Navoiy viloyati - 2614,0 ming so'm</b>
<b>Toshkent viloyati - 2474,1 ming so'm</b>
<b>Buxoro viloyati - 2235,2 ming so'm</b>
<b>Samarqand viloyati - 1695,8 ming so'm</b>
<b>Andijon viloyati - 1688,2 ming so'm</b>
<b>Sirdaryo viloyati - 1668,5 ming so'm</b>

2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 476,8 ming so'mga oshdi.

Toshkent shahrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 459,2 ming so'mga oshdi.

Shu bilan birga, shu hudud bo'yicha o'tgan davrga nisbatan 2 177,9 ming so'mga o'sish kuzatilmoqda.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida  
aholi jon boshiga xizmatlar hajmining o'sishi  
va o'sish sur'atlari**




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Sirdaryo (20,8 %), Jizzax (16,3 %), Xorazm (12,7 %) va Qashqadaryo (10,8 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi (14,8 %) va Toshkent shahrida (13,8 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (106,8 %), Samarqand (107,7 %), Surxondaryo (107,9 %), Farg'ona (109,2 %), Andijon (109,9 %) va Buxoro (110,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (157,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (109,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (108,0 %), ta'lim (107,6 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (107,5 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**




**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>100 114,4</b>	<b>112,8</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5 714,1	108,0
Moliyaviy xizmatlar	17 930,2	157,8
Transport xizmatlari	29 161,3	106,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	13 336,4	102,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 979,7	106,4
Savdo xizmatlari	25 391,1	104,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3 099,7	104,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2 989,4	107,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 507,6	107,5
Ijara xizmatlari	2 068,1	104,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 648,3	103,6
Shaxsiy xizmatlar	2 440,5	104,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 904,6	109,1
Boshqa xizmatlar	3 279,8	103,3

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rilyotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha umumiy xizmatlar tarkibida ustun xizmat turlarining taqqoslanishi, %**



Deyarli barcha hududlarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida moliyaviy va transport xizmatlari, savdo, aloqa va axborotlashtirish kabi xizmatlarning ulushini ortishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida transport xizmatlari ulushi eng katta 29,1 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (25,4 %), moliyaviy xizmatlar (17,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (3,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,0 %), shuningdek yashash va ovqatlanish xizmatlarida (3,0 %) kuzatildi.


O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan va mintaqaning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaralarga ega bo'lgan yagona mamlakatdir: shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, janubi-g'arbda Turkmaniston bilan, janubda Afg'oniston bilan, janubi-sharqda Tojikiston va sharqda Qirg'iziston bilan chegaradosh.

Ushbu geosiyosiy omillar tufayli O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida muhim o'rin tutadi va mintaqaviy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning geografik joylashuvining muhim xususiyati transport tarmog'ining rivojlangan tizimining mavjudligidir.

Bugungi kunda respublikamiz transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga va barcha yo'nalishlarda hamda transportning barcha turlarida yuklar va yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga ega.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida transport turlari bo'yicha  
transport xizmatlarining tarkibi, %



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 45,7 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining hajmi 22,0 % ni tashkil etdi. O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 13,9 % ga yetdi.

Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi 10,2 %, yordamchi transport faoliyati esa – 8,2 % qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq boshqaruvini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 10 iyuldagi PQ-4389-son Farmoniga binoan joriy yilning oxiriga qadar O'ztrans yagona interaktiv axborot tizimi bazasida "Yuk tashishlar monitoringi" axborot platformasi ishlab chiqiladi.


*U yuk tashuvchilar tomonidan tovarning kuzatuv hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish, yuk jo'natuvchilar va uni qabul qilib oluvchilar tomonidan real vaqt rejimida tovarlar harakatini monitoring qilishni ta'minlaydi.*

*Shuning asosida, 2020-yil 1-yanvardan boshlab yuk tashuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovarning kuzatuv hujjatlarini Axborot platformasida majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazish tartibi joriy etiladi (<https://www.spot.uz>).*

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2019 yil yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 70,6 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 29,4 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida tashish turlari bo'yicha avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %**



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik chakana tashkilotlari - chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, engil konstruksiyali pavilonlar va yarmarka turlarining soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynaydi, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshiradigan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 25,4 % ni tashkil etib, bu 25 391,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uchi – 66,5 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 26,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.


### 2019-yil yanvar-iyul oylari uchun savdo xizmatlari tarkibi, %



Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda chakana savdo xizmatlarining yuqori ulushi Andijon (83,0 %), Qashqadaryo (82,8 %) va Buxoro (80,4 %) viloyatlarida kuzatildi.

Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi 44,2 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Biroq, Toshkent shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi - 47,3 %. Andijon viloyatida eng kichik ulush - 10,3 %.


Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Samarqand (10,7 %), Farg'ona (8,6 %), Toshkent (7,9 %) viloyatlarida, Toshkent shahri (8,5 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (7,1 %) qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Surxondaryo (3,8 %), Jizzax (4,6 %), Qashqadaryo (4,8 %) va Namangan (5,0 %) viloyatlarida qayd qilindi.

Bugungi kunda etakchi o'rinlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 17 930,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6 802,1 mlrd. so'mga oshdi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari, %**




2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Sirdaryo (2,2 marta), Jizzax (97,7 %), Namangan (80,2 %), Navoiy (74,6 %), Buxoro (72,1 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (78,2 %) kuzatilmoqda.

Boshqa hududlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'atlari Toshkent (147,8 %), Qashqadaryo (148,9 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (150,4 %) sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,4 % ni tashkil etadi.

### 2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Ushbu xizmatlarning ulushi Surxondaryo (93,3 %), Qashqadaryo (91,8 %), Sirdaryo (91,5 %), Samarqand (91,4 %), Jizzax (90,5 %), Farg'ona (90,5 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (93,1 %) ahamiyatga ega. Eng past ko'rsatkich Toshkent viloyatida (86,7 %) qayd etildi.

Hududlar o'rtasida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta xizmatlari hajmi Toshkent (11,8 %) va Namangan (10,1 %) viloyatlarida ustunlik qiladi.

Sug'urta xizmatlarining eng past ko'rsatkichlari Andijon (5,4 %), Surxondaryo (5,6 %), Samarqand (5,7 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (5,7 %) va Toshkent shahri (5,8 %) kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** *Standard & Poor's, Fitch Ratings, Moody's Investors xalqaro reyting agentliklarining kredit reytingida O'zbekistonning xorijiy va milliy valyutadagi pozitsiyasi "BB-" va "B1" darajasini saqlab turibdi. Bu degani, reytingning prognozi barqaror va bu agentlik ekspertlarining fikricha, respublika yaqin va o'rta muddatda xavflarning muvozanatini saqlab qolishda davom etadi (<https://ru.tradingeconomics.com>).*

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari, aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmoqda.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarida boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 5 714,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 8,0 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 81,4 % ni tashkil etadi.


**2019-yil yanvar-iyul oylarida  
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari 5,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 6,1 %, axborotlashtirish xizmatlari - 2,9 %, boshqa xizmatlar - 4,0 % ni tashkil etadi.

Telekommunikatsiya xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax (99,1 %), Sirdaryo (98,1 %), Samarqand (97,9 %) va Qashqadaryo (97,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida  
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida  
telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi, %**



Toshkent sh. – etarli darajada rivojlangan axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga ega hududdir.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda bu erda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar (10,8 %), nashriyotchilik xizmatlari (8,8 %), dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar (6,0 %), axborot sohasidagi xizmatlar (5,1 %) da eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lib, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida esa telekommunikatsiya xizmatlari ulushi Toshkent shahrida nisbatan past bo'lgan, bu 68,1 % ni tashkil etdi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.



2019-yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2 989,4 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 7,6 % ni tashkil etdi.


2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

### 2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm




Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-iyul oylarida 1 246,5 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu erda joylashganligidadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Xorazm viloyatida – 128,5 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari, %**




Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (118,4 %), Jizzax (117,5 %), Sirdaryo (110,2 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (118,1 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida eng past o'sish sur'ati Surxondaryo viloyatida - 93,3 qayd etildi.


2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil etdi, hajmi esa 517,2 mlrd. so'mga oshdi va 2 979,7 mlrd. so'mga etdi.

### Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 79,7 % bilan ustunlik qiladi.

### 2019-yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 118,2 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 20,3 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Toshkent shahrida 1 332,7 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 243,4 mlrd. so'mga oshishi qayd etildi.

Buning o'sishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, ularning hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 179,2 mlrd. so'mga ko'paydi.

### 2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari va hajmi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Sirdaryo viloyatida – 31,2 mlrd. so'm qayd etilib, 4,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori o'sishi Xorazm viloyatida qayd etildi (13,2%). Bundan tashqari, Jizzax (11,5%) va Surxondaryo (10,0%) viloyatlarida xizmatlar o'sishi kuzatildi.

Farg'ona viloyatida o'sish sur'atlari nisbatan katta bo'lmagan. Ular 101,3 foizni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 1 507,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 % ni tashkil etdi.

### Jami sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmida hududlar kesimidagi ulushini taqqoslanishi, %



Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Hududlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Toshkent shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 162,9 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 42,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Toshkent (9,9%), Farg'ona (7,9%) va Samarqand (6,3%) viloyatlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlar ulushi nisbatan katta bo'lmagan hududlar Sirdaryo (1,3%) va Navoiy (1,7%) viloyatlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,2%) hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda.

**Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi**

**71-230-80-59**